

Nazar Eshonqul ijodining motivlar tizimi

Ahmedova Muxlisa Ulug'bek qizi

Urganch davlat universiteti magistranti

Annotatsiya : Ushbu maqolada badiiy asarda voqealikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur – motivlar haqida so'z yuritiladi .Xususan , Nazar Eshonqul asarlari misolida .

Kalit so'zlar : Xalq og'zaki ijodi, motiv, syujet, nasr , surat motiv, tush motiv.

Har bir tadqiqotchi, avvalambor , butunni bilish uchun uni yuzga keltiruvchi qismlarni bilish kerak bo'ladi. Shu ma'noda epik asarlarning syujet asosini tashkil etuvchi motivlarni bilmasdan ularning mohiyatini anglash mushkul . Demak, dastlab “ motiv “ so'zi nima ekanligi haqida to'xtalishimiz kerak .

Adabiyotshunoslik terminlari lug'atida “ Motiv syujet tarkibidagi halqalardan biri “, - deyilgan. Syujet asar mazmunini tashkil etgan voqealar tizimi bo'lsa , motiv shu voqealikni yuzaga keltiruvchi asosiy unsur hisoblanadi. Ya'ni epik asarlar qurilishini motivlarsiz tasavvur etish mumkin emas . Xalq dostonlarida timsoliy ma'no kasb etgan tush motivi bilan bevosta parallel holatda yoxud ushbu motiv bilan chambarchas bog'liq holatda kelgan qator mifologik motivlar ham ko'plab uchraydi, jumladan,tug'ilish, sinov, tush , surat, safar, uylanish, homiy, xatar, o'lim, tirilish, sarhushlik,tutqinlik va hokazo motivlar mavjud. Nazar Eshonqul o'z asarlarida inson ruhiy holatini jo'n so'zlar bilan emas, badiiyat vositalari orqali tasvir etadi . Tabiatga ,jamiyatga bo'lgan, isyon, insoniyatni qurshab turgan iztiroblar ranglar,hidlar,suratlar orqali ifoda etiladi. Xususan, “ Xaroba shahar surati” , “ Qora kitob”, “ Tobut shahar” ,” Maymun yetaklagan odam “ asarlarida yozuvchining bu uslubi yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda yozuvchi meditatif holatlarni kitobxonga so'z orqali ifoda etishdan ko'ra surat orqali havola qilishni ma'qul ko'radi . Fikr - mulohazani o'quvchining o'ziga topshiradi. Har bir asarda keltirilgan surat va undagi ranglar orqali yozuvchi kitobxonni qahramonning

ruhiy olamiga olib kiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy holatlarni anashu ramziylik orqali badiiy talqin qiladi. Xususan, yozuvchining “ Maymun yetaklagan odam” asarida cholning chizgan suratlari kitobxonni o’sha davr olamiga sayohat qildiradi. Bu suratlar mislsiz azoblarda o’rtanayotgan , bor bisotidan, o’zligidan ajralgan, dunyoga qo’l siltagan inson ichki olamini namoyon qiladi. Ular buyuk rassomlar asari singari qabariq va ta’sirchandır. Ushbu suratlarda o’z xotiralarini yengolmagan, taqdir so’qmoqlarida adashgan odam so’zlab turgandek ko’rinadi.

“ Ayvon uzun bo’lib , suratlar chizilgan yillariga qarab ko’rgazmaga qo’yilgandek terib qo’yilgan, to’g’rirog’i bor yo’g’i qirqqa yaqin surat va eskizlar “ 1957”, ”1947”, “1937” ,” 1928”, “1926” va hokazo tartibda terib qo’yilgan edi. Suratlarni oralab borar ekanman, qandaydir zinalardan cholning umr tilsimoti yashiringan qo’rg’on tomon ko’tarilib borayotgandek his etdim o’zimni ...” . Asardagi ushbu satrlarni o’qir ekanmiz, suratlarni o’ngdan chapga qarab surat chizilgan yillar ,o’tmishdagi voqealikka ishora qilayotganini anglash qiyin emas . Ayniqsa , qahramonning “1921” yilda chizilgan surati e’tiborni tortadi. “ Surat ancha uquvsizlarcha chizilgan bo’lsa-da , ranglari yorqin va tiniq edi. Suratda quyuc o’rmondan maymunni yetaklab chiqayotgan barvasta gavdali yigit tasvirlangan edi. Yigitning ko’zlari tiyrak va ishonch bilan porlab turar , maymunning bo’yniga solingan kishan tarang tortilgan edi, qizg’ish va javdari bo’yoq yigitning ko’nglidagi hisni to’la aks ettira olgan edi”.

Nazar Eshonqulning hikoyalarida , qissalarida va shu kabi barcha asarlaridagi ushbu tasvirlar , o’sha davrdagi insonlar obrazining tipiklashtirilgan vakili – cholning ruhiy holatini bo’yoqlarda aks ettirish uchun xizmat qiladi. Hayotga katta ishonch bilan kirib kelayotgan , qarashlaridan butun dunyoni o’ziga bo’ysundira oladigan, navqiron yigit qiyofasi gavdalantiriladi. Undan keyingi davrlarda chizilgan suratlarda esa bo’yoqlar o’z o’rnini topgan, tabiat manzaralari tobora go’zallashib , ranglar turfa xilda tasvirlanib boraveradi, biroq keyingi tasvirlarda osmon-u falakni qoplagan kuzgi qarg’alar kabi suratkarga mavhumlik cho’kadi. Boshqa ranglar o’rnini qora ranglar ola boshlaydi. Aynan o’sha davrdagi suratlarda hovullab qolgan qishloqlar , ko’chalar egalarini tashlab ketgan uylar

o'ziga chorlab turgan qabristonlar, o'lim isi kelib turgan har xil qurollar yig'layotgan ayollar va dalani bosib ketgan o'laksaxo'r quzg'unlar, murdalar ortilgan aravalar panjarali kameralar yonib yotgan qishloq qandaydir qo'rquvdan xuddi "Pampeyaning so'nggi kuni" kabi dong qotib qolgan olomon, sirli mahluqlar, yirtqich hayvonlar yuzlariga har xil jondorlarning niqoblarini kiyib olgan odamlar, bazm-u jamshid qilib o'tirgan shotirlar, aroq navlari, turli xil taomlar, yalang'och ayollar, ma'suma qizlar qovjirab qolgan gullarning suratlarini ushbu asarda aks etgan adi. Yuqorida keltirilgan suratlar orqali cholning hayotida yuz bergan 30- yillardan keyingi voqealarning guvohi bo'lamiz. Bunda surat shu qadar mahorat bilan chizilganki, kitobxonning ko'z oldiga xo'rlanish, tahqirlanish, adolatsiz tuzumning necha minglab insonlarning qurbon bo'lishiga sababchi bo'lgan partiyani qo'llab quvvatlash, to'g'ri yo'ldaman deya o'z vatandoshlarining umriga zomin bo'lgan alaloqibatda esa ishongan g'oyalari puch ekanligini tushunib odamlar orasidan o'zini chetga tortib nima to'g'ri-yu nima egri ekanligini sarhisob qilib, umrini taftish qilib yashash bilan o'tgan chol obrazi namoyon bo'ladi.

Oxirgi surat esa maymun, qarab turgan umidsiz ko'zlariga g'am cho'kkan, munkaygan bir cholni o'rmon sari yetaklab ketardi. Bu tasvir orqali nafaqat yozuvchining ijodiy mahoratini, balki asarning kompozitsion qurilishini e'tirof etmaslik mumkin emas. Nazar Eshonqul quyidagi hikoyasi orqali xalq og'zaki ijodida, xususan, yozma adabiyotda ham qo'llanadigan surat motivini yaqqol namoyon qilgan. Uning boshqa asarlarida, jumladan, ko'plab hikoyalarida "Qo'l", "Tobut", "Bepoyon osmon" va boshqa hikoyalarida ham xalq og'zaki ijodiga mansub turli xil unsurlarni uchratishimiz mumkin. Nazar Eshonqulning yana bir asari "Qora kitob" romanida ham folklorga oid unsurlarni uchratamiz. Ushbu asarda ham adib qahramonlarning ruhiyatini so'z bilan ifoda etishdan qochadi. Ularning ruhiyatidagi isyonkorlik, iblisga o'zini topshirish, insonlarning ustidan hukmronlik o'rnatish holatlari so'zlar bilan emas ular chizgan suratlar undagi bo'yoqlar orqali ifoda etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Nazar Eshonqul o'zining asarlarida yovuzlik yuziga ezgulik niqobini kiygan, 20- asrda inson nomidan, ezgulik nomidan

yovuz kimsalar ish ko'radigan, ayniqsa, insoniyatning keyingi tarixida ezgulikni yovuzlikdan ajratib olish qiyin bo'lgan davr qahramonlarini qayta yaratadi. Chunki yovuzlik ham ezgulik foydalangan tildan, so'zdan foydalanadi. Nazar Eshonqul asarlarini o'qir ekanmiz undagi tasvirlar, ranglar, badbo'y va chirkin hidlar, u qo'llagan so'zlar, suratlar orqali inson ruhiyatidagi isyon, inson qalbidagi ijtimoiy norozilik ifodasi tasvir etilayotganiga guvoh bo'lamiz. Umuman, har qanday epik ijod, birinchi navbatda, ertak va dostonlar ham o'z qurilmasiga ega. Motiv esa anashu qurilmada asosiy o'rin tutadi. Shunday ekan, folklor asarlari tahlili motivlar tahlili orqali amalga oshmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha lug'ati.-Toshkent: O'qituvchi, 1979
2. Eshonqul N.Momoqo'shiq: qissa va hikoyalar.- Toshkent: G'ofur G'ulom, 2019
3. Eshonqul N. Qora kitob.,„Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati,2008